

QIZILMIYA ILDIZINING XALQ TABOBATI VA ZAMONAVIY TIBBIYOTDAGI O'RNI

To'xtasinova Moxigul Shavkatovna

Qo'qon universiteti Andijon filiali gistologiya fani o'qituvchisi,

Yusufjonov Jasurbek Bektemirjon o'g'li o'g'li

Qo'qon universiteti Andijon filiali talabasi,

Alisherova Mahzunabonu Shuhratjon qizi

Qo'qon universiteti Andijon filiali talabasi,

[Xat yozish uchun: tuktasinova0303@gmail.com],

[Xat yozish uchun: jasurbekyusufjonov369@gmail.com],

[Xat yozish uchun: mahzunaalisherova1@gmail.co

Annotatsiya: Qizilmiya ildizi (*Glycyrrhiza glabra*) qadimdan Markaziy Osiyo va boshqa mintaqalarda xalq tabobatida keng qo'llanib kelinadi. Uning tarkibidagi glytsirrizin, saponinlar, flavonoidlar va efir moylari antiviral, yallig'lanishga qarshi hamda immun tizimini mustahkamlovchi xususiyatlarga ega. Xalq tabobatida asosan yo'tal, bronxit, ovqat hazm qilish buzilishlari va siydik yo'llari yallig'lanishida ishlatiladi. So'nggi ilmiy tadqiqotlar qizilmiya ildizining nafas yo'llari kasalliklarida, og'iz shilliq qavati kasalliklarida, yara bitish jarayonida samaradorligini hamda onkologiyada qo'llash imkoniyatini tasdiqlamoqda. Ammo uni haddan tashqari ko'p iste'mol qilish qon bosimini oshirishi, shish va gipokalemiyaga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois uni shifokor nazorati ostida qo'llash tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: Qizilmiya ildizi, *Glycyrrhiza glabra*, xalq tabobati, zamonaviy tibbiyot, glytsirrizin, antiviral, yallig'lanishga qarshi, immunomodulyator, nafas yo'llari kasalliklari, onkologiya.

Annotation: Licorice root (*Glycyrrhiza glabra*) has been widely used in traditional medicine of Central Asia and other regions for centuries. Its bioactive compounds, such as glycyrrhizin, saponins, flavonoids, and essential oils, demonstrate antiviral, anti-inflammatory, and immunomodulatory effects. Traditional applications include the treatment of cough, bronchitis, digestive disorders, and urinary tract inflammations. Recent clinical and laboratory studies confirm licorice root's efficacy in respiratory diseases, oral lesions, wound healing, and its potential in oncology. However, excessive use may cause side effects such as hypertension, edema, and hypokalemia. Therefore, controlled usage under medical supervision is essential.

Keywords: Licorice root, *Glycyrrhiza glabra*, traditional medicine, modern medicine, glycyrrhizin, antiviral, anti-inflammatory, immunomodulatory, respiratory diseases, oncology.

Аннотация: Корень солодки (*Glycyrrhiza glabra*) на протяжении веков широко применялся в народной медицине Центральной Азии и других регионов. Его биологически активные вещества, такие как глицирризин, сапонины, флавоноиды и эфирные масла, обладают противовирусными, противовоспалительными и

иммуномодулирующими свойствами. Традиционно солодка используется при лечении кашля, бронхита, нарушений пищеварения и воспалений мочевыводящих путей. Современные клинические и лабораторные исследования подтверждают её эффективность при заболеваниях дыхательных путей, поражениях слизистой оболочки рта, заживлении ран, а также потенциальное применение в онкологии. Однако чрезмерное употребление может вызвать побочные эффекты, такие как гипертония, отёки и гипокалиемию. Поэтому её использование должно быть контролируемым и проводиться под наблюдением врача.

Ключевые слова: Корень солодки, *Glycyrrhiza glabra*, народная медицина, современная медицина, глицирризин, противовирусное, противовоспалительное, иммуномодулирующее, заболевания дыхательных путей, онкология.

KIRISH

Qizilmiya — dukkakdoshlarga mansub ko'p yillik ildizpoyali begona o't. Poyasi sershox, dag'al, bo'yi 40-150 sm, tik o'sadi. Barglari murakkab, toq patsimon, uzunchoq. Gullari binafsha rang, shoda to'pgulga yig'ilgan. Mevasi cho'zinchoq dukkak. Aprel-iyunda gullab mevalaydi. Urug'i va vegetativ usulda ildizpoyalaridan ko'payadi. Ildiz sistemasi kuchli rivojlanadi, 3 m chuqurlikkacha kirib boradi. Ildizpoyalaridan yer usti novdalari hosil bo'ladi, urug'i qattiq qobiqli, 30-35° C haroratda ko'karadi. O'rta Osiyoning hamma rayonlarida, jumladan, Toshkent, Farg'ona, Qashqadaryo viloyatlarida tarqalgan. Hamma chopiqtalab ekinlar, ayniqsa, beda va donli ekinlar orasida uchraydi, sug'orish kanallari bo'ylari, ariq yoqalari, bog' va uzumzorlarda o'sadi [1].

Qizilmiya - kimyoviy tarkibi boy bo'lgan mashhur dorivor o'simlik. U ko'plab kasalliklar, jumladan, nafas olish tizimini davolash uchun ishlatiladi.

Qizilmiya asosidagi preparatlar o'simlikdan qilinganligi sababli, ularning nojoya ta'sirlari kam boladi va kattalarda ham, bolalarda ham qo'llanilishi mumkin.

Qizilmiya ildizining asosiy faol moddalari glytsirrizin, saponinlar, flavonoidlar, kumarinlar va efir moylaridan iborat. Ayniqsa, glytsirrizin moddasi o'zining antiviral, yallig'lanishga qarshi va immunomodulyator ta'siri bilan ajralib turadi [2]. Ushbu komponentlar tufayli qizilmiya xalq tabobatida ham, zamonaviy tibbiyotda ham keng tadbiiq qilinmoqda.

Markaziy Osiyo va O'zbekiston xalq tabobatida qizilmiya ildizi asosan: yo'tal va bronxitni davolash, shamollash kasalliklarida balg'am ko'chiruvchi vosita sifatida, siydik yo'llari kasalliklarida yallig'lanishni kamaytirish uchun, ovqat hazm qilish buzilishlarini yengillashtirishda ishlatiladi [3].

Masalan, qishloq joylarda odamlar qizilmiya ildizidan tayyorlangan qaynatmani bolalar yo'tali uchun balg'am ko'chiruvchi sifatida qo'llashadi. Shuningdek, ich ketishi yoki oshqozon og'rig'ida ham xalq tabobatida tavsiya etilgan.

So'nggi yillarda qizilmiya ildiziga oid klinik va laborator tadqiqotlar uning samaradorligini ilmiy jihatdan tasdiqlamoqda. Tadqiqotlar quyidagi yo'nalishlarda muhim natijalarni ko'rsatgan:

1. Viruslarga qarshi ta'siri: glytsirrizin gripp, gepatit va hatto COVID-19 viruslariga qarshi potensial ta'sir ko'rsatishi aniqlangan [1].

2. Nafas yo'llari kasalliklari: surunkali yo'tal bilan og'rigan bemorlarda qizilmiya asosidagi pastil samarali bo'lgan [2].

3. Og'iz shilliq qavatida: aftoz stomatitda qizilmiya ekstrakti asosida tayyorlangan vositalar og'riqni kamaytirib, yaralarning tez bitishini ta'minlagan [6].

4. Yallig'lanishga qarshi ta'siri: kuyik va teri yallig'lanishlarida qizilmiya ekstrakti gel shaklida qo'llanilganda shish va og'riqni kamaytirgan [5].

5. Onkologik qo'llanilishi: ba'zi tadqiqotlarda qizilmiya ildizining antioksidant va saraton hujayralariga qarshi potentsiali o'rganilmoqda [1].

Qizilmiya ildizini haddan tashqari ko'p iste'mol qilish qon bosimini oshirishi, shish va gipokalemiya (kaliy kamayishi)ga olib kelishi mumkin. Shu bois uni xalq tabobatida ham, zamonaviy tibbiyotda ham shifokor nazorati ostida qo'llash tavsiya etiladi [4].

Xulosa. Qizilmiya ildizi xalq tabobatida qadimdan ishlatilib kelinayotgan bo'lsa-da, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar uning biologik faol komponentlari tufayli dorivor qiymatini yanada isbotlab bermoqda. Uning yo'talni kamaytiruvchi, yallig'lanishga qarshi, antiviral va immun tizimini qo'llab-quvvatlovchi xususiyatlari amaliy tibbiyotda keng qo'llanishiga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, noto'g'ri yoki ortiqcha qo'llanishi asoratlar chaqirishi mumkinligi bois, qizilmiya ildizidan foydalanishda ehtiyotkorlik va mutaxassis tavsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. Saeedi M, et al. The Effect of Licorice Root Extract Pastille on Chronic Cough: A Randomized Clinical Trial. J Ethnopharmacol. ScienceDirect
3. Nabavi SM, et al. Traditional uses of Glycyrrhiza glabra in Central Asia. J Ethnopharmacol. PMC10458710
4. Yang R, et al. Safety aspects of Glycyrrhiza glabra consumption. Phytomedicine. PMC9227067
5. Saffari H, et al. Topical application of Glycyrrhiza glabra extract in burn wound healing: A clinical trial. J Ethnopharmacol. ScienceDirect
6. Khademi H, et al. Licorice-based treatments for recurrent aphthous stomatitis: A systematic review of clinical trials. Dent J. MDPI